

YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI: INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING YANGI BOSQICHI

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

*Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada san'ati institute Estrada san'ati fakulteti 1-bosqich
magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi konstitutsiyaning ilk qabul qilingan konstitutsiyadan farqlari, Yangi Konstitutsiyada ta'lim va mehnat faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan moddalar taqqoslash yo'li orqali nazariy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Yangi hamda eski qonunning o'xshash va farqli tomonlari, Yangi Konstitutsiyaning afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, ta'lim, huquq, qonun, modda, mehnat, sog'liq, yoshlar, Yangi O'zbekiston, erkinlik.

Yangi O'zbekistonda qabul qilingan hamda amal qilib kelinayotgan barcha qonun hamda qarorlarning asosi, shubhasiz, bosh qomusimiz Konstitutsiyadir. Bosh Qomusimizning yangilanganiga bu yil 2 yil bo'ladi.

Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.⁷ Ushbu qonunlarga o'zgartirish kiritilgani Respublikaning har bir fuqarosi uchun juda muhim hodisa bo'ldi. Bu qonun O'zbekistonning har bir fuqarosi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Bosh qonunimiz eng avvalo har bir fuqaro yashash huquqiga egaligini va boshqa hech kim insonni bu huquqdan mahrum qilishga haqqi yo'qligini ta'kidlab o'tgan (Yangi Konstitutsiya 25-modda). Bundan ko'rinadiki, har birimizning hayotimiz Bosh qonun bilan himoyalangan va erkin yashashimiz davlat himoyasi ostidadir.

1992-yilda qabul qilingan konstitutsiyaga nazar soladigan bo'lsak, 29-moddasida aynan inson ilm olishi hamda ta'lim olishi uchun poydevor hisoblangan fikr yuritish to'g'risida so'z borgan:

"Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklanishlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992)

29-modda

2023-yilda qabul qilingan Yangi Konstitutsiyaning 33-moddasi ham xuddi shu masalani nazarda tutadi, ya'ni O'zbekiston hududida yashovchi, tili, millati, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar har bir fuqaroga o'zi xohlagan sohada bilim olish huquqini kafolatlaydi. Ushbu qonun ta'siri ostida Respublikamizda Maktabgacha, o'rta,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

o'rta-maxsus, Oliy hamda oliy ta'limdan keying ta'lim, mustaqil izlanuvchilik doirasida ta'lim olish huquqi mavjuddir. Bu borada konstitutsiyada qator qonunlar keltirilgan:

"Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir."

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992) 41-modda

Bepul va sifatli ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlangan ekan, har bir fuqaro har qaysi vaqtda, yoshidan qat'i nazar o'z xohlagan kasbi doirasida o'qishi mumkin.

2023-yilda yangilangan Konstitutsiyada ushbu faoliyatga bog'liq huquqlarimiz kengroq tasnif qilingan. Ushbu qonunning 50-moddasida davlat maktabgacha ta'limi, bepul umumiy o'rta ta'lim hamda professional ta'lim olishi kafolatlangan. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan talabgorlar uchun inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yilgani ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek Yangi Konstitutsiya davlat hisobidan Oliy ta'lim olish huquqi, o'qituvchilarning sifatli faoliyati, ularning davlat va fuqarolar oldidagi qadr-qimmat, o'qituvchilarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ulkan sharaflari mehnati ham ko'rsatilgan va ulug'langan. Shu bilan bir qatorda eski Konstitutsiyadan farqli ravishda har bir fuqaroning badiiy ijod hamda texnikaviy erkinligi kafolatlangan.⁸

O'qish va ta'lim olish faoliyatidan keying muhim faoliyat bu mehnat faoliyati hisoblanadi. Respublikamizda fuqarolarning kasb tanlashi, ushbu kasbda erkin faoliyat yuritilishi ham qonun tomonidan kafolatlangandir.

"Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992)

37-modda

O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan konstitutsiyasida har bir fuqaroning erkin mehnat qilishi kafolatlangan. Yangi Konstitutsiyaga esa o'z navbatida ushbu huquq va erkinliklarni yanada kengaytirgan holda yangi qonunlar qo'shilgan.

Mazkur qonun har birimizning adolatli hamda xavfsiz faoliyat yuritishimizga, o'z xohishimiz hamda qiziqishlarimiz doirasida kasb hamda hunar tanlashga yo'l ochib bergan. Hamda shu bilan birga mehnatning munosib haq to'lanishi, tegishli dam olish vaqtlari, ayollarga turli vaziyatlarda (homiladorlik, bola tarbiyasi) mehnat ta'tili ko'rinishida yengillik berish, mehnatga layoqatli bo'lmay qolgan taqdirda mehnat kodeksi doirasida nafaqaga chiqarish hamda tegishli miqdorda nafaqa to'lanishi zarurligi nazarda tutilgan.

Shuningdek, fuqarolarning mehnat bandligini ta'minlash, ishsizlikka barham berish kabi muammolarning yechimi ham ko'zda tutilgan. Kasbiy tayyorlov, qayta tayyorlovlar ham davlat tomonidan kafolatlangan huquqlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga majburiy mehnatga jalb qilish ham qonun tomonidan taqiqlangan faoliyatlardan biridir.

Har bir inson o'z xohishiga ko'ra mehnat faoliyatini olib borishi uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

⁸ Yangi Konstitutsiya – 2023. 53-modda

Hayotimizning yana bir eng muhim omili bu bizning sog'lig'imiz hisoblanadi. Ta'lim hamda mehnat faoliyatlarimiz himoyalangani singari bizning sog'lig'imiz ham Bosh Qomusimiz tomonidan kafolatlangan. Eski Konstitutsiyaning 42-moddasi aynan shu huquqqa bag'ishlangan.

"Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992) 42-modda

Yangi Konstitutsiya esa, o'z navbatida ushbu qonunga qo'shimchalar kiritib, bizning ushbu sohaga bog'liq boshqa huquqlarimizni ham keltirib o'tgan. Fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlari kengroq qamrovga olingandir.

Bu haqida Konstitutsiyamizning 48-moddasida keltirib o'tilgan:

"Har kim sog'liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023) 48-modda

Davlatimiz aholining sog'liqni mustahkamlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport faoliyatlari bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Davlatimiz bizga bir qancha huquq va erkinliklar bergani qatorida fuqarolarning bajarishi zarur bo'lgan burchlarni ham belgilab o'tgan. Respublikaning har bir fuqarosi eng avvalo Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar. Bundan tashqari boshqa insonlarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, yurtimizning tarixiy va madaniy yodgorliklarini asrab-avaylash, atrof-muhitni muhofaza qilish ham har bir Respublikada yashayotgan fuqaroning burchi hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda oila, bolalar, yoshlar va jamiyat, har bir jabha qamrab olingan bo'lib, har biriga xos bo'lgan huquq va erkinliklar ta'kidlab o'tilgan. Ularga amal qilish orqali biz o'zimizning erkin va farovon hayotimizni, tinch hamda totuv kelajagimizni kafolatlagan bo'lamiz.

Qonunchilikdagi ushbu o'zgarishlar, shubhasiz har birimizning ijtimoiy-siyosiy hayotimiz uchun juda muhimdir. Konstitutsiyaga yangiliklar kiritish orqali har bir fuqaroning huquq va erkinliklari har bir jabhada kafolatlanganini ta'kidladi. Yangi O'zbekistonda ta'lim va mehnat sohasi rivojlangani ta'siri ostida fuqarolarning ehtiyojlari ham ortib bordi va albatta ushbu ehtiyojlar himoyaga muhtoj. Shu maqsadda ham bosh qonunga ma'lum o'zgartirishlar kiritildi. Bosh qonunimiz hajm va mazmun jihatdan kengaydi.

Zamonaviy dunyoda turli tahdidlar ko'paygani ham ushbu qonunchilikdagi o'zgarishlarga turtki bo'ldi, bungacha bizning so'z hamda e'tiqod erkinligimiz, mehnat, ta'lim va yashash erkinligimiz himoyalangan bo'lsa, yangi Konstitutsiyada zamonaviy tahdidlar ta'siri ostida bizning axborot erkinligimiz, internet hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish huquqlarimiz himoyasi ham ilova qilingan.

Bundan ko'rinadiki, Yangi Konstitutsiyaning biz – o'sib kelayotgan avlodning xavfsiz va sifatli hayot kechirishimiz garovi bo'ldi.

Hamda ushbu qonun kelajakdagi o'zgarishlar, yangidan-yangi innovatsion ixtirolar va yosh avlodning sog'lom o'sib, rivojlanishi uchun muhim poydevor va himoya bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023.
3. <https://lex.uz>